

O‘ZBEK TILIDA IKKI NUQTA BELGISINING PRAGMATIK XUSUSIYATI

A.A.Navro'zova,

Buxoro davlat universiteti magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqolada ikki nuqta belgisining o‘zbek yozuvida qachondan ishlatilganligi, shunigdek qanday nomlar bilan aytilishi, matn va gap tarkibida qo‘llanilishi haqida so‘z boradi. Unda avtor gapi o‘zga nutqdan oldin kelsa, undan so‘ng ikki nuqta qo‘yilishi, sitata avtor gapi ichida kelsa, uning qismi hisoblansa, avtor gapidan so‘ng ikki nuqta qo‘yilmasligi ta’kidlangan.

Kalit so‘z: ikki nuqta, punktuatsiya, umumlashtiruvchi so‘z, uyushiq bo‘lak, yo‘g‘on ichak, yo‘g‘on nuqta.

Yozma nutq kishilik jamiyati hayotida katta ahamiyatga egadir. U hozirgi bosqichda uch qism birligidan iborat: grafika, orfografiya, punktuatsiya. Demak, punktuatsiya, ham jamiyat hayotida va taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.[1] Shunga ko‘ra punktuatsiyani katta bir sistema(oqim) deydigan bo‘lsak ikki nuqta(:) uning kichik bir tarmog‘i(bo‘lagi) hisoblanadi.

Ikki nuqta o‘zbek yozuvida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan etiboran ishlatila boshlangan. Ikki nuqta (:) qo‘sh nuqta. Bu sharh , izoh belgisidir. Ikki nuqta o‘zbek tilshunosligida “ bayon belgisi”, “ bayon alomati” deb ham yuritiladi. [4]

Ma’lumki, qadimgi yunon faylasufi Platon ba’zan kitobning butun bo‘limlarini ikki nuqta bilan tugatgan. Yo‘g‘on ichak qisqartma belgisi sifatida, odatda, eski Evropa yozuvlariga xos edi (rus tilida bu 19-asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan). Zamonaviy tillar orasida yo‘g‘on ichakning bu funksiyasi shved va fin tillarida, hatto so‘zning o‘rtasida ham saqlanib qolgan: H:ki (Xelsinki).[2]

Bu tinish belgisi gap ichiga qo‘yiladi. Ikki nuqta gapning o‘zaro bog‘lanishi yoki bir-biridan farq qilishi mumkin bo‘lgan qismlar orasiga

qo'yiladi. Bunday belgini oddiy gaplarda ham, murakkab gaplarda ham uchratish mumkin. Yo'g'on nuqta o'quvchi e'tiborini keyingi narsalarga qaratadi. [3]

Odatda, ikki nuqta sanab o'tish oldidan qo'yiladi, ya'ni "umumlashtiruvchi" tushuncha mavjud. Yaxshiroq tushunish uchun "Partada o'quv qurollari bor edi: kitob, daftar, qalam v.h.k". Ushbu holatda "o'quv qurollari" so'zi umumlashtiriladi. Agar ma'lum bir qoidani inobatga olsak, umumlashtiruvchi so'z yo'q lekin sanab o'tish mavjud - Toshkanddan nimalar keltirdingiz, bek aka?

--Arzimagan narsalar: gazmol, qalapoy afzali va bir oz qozon. ("O'tgan kunlar")

Murakkab gaplardagi ikki nuqta sodda gaplardan biri ikkinchisini tushuntirishini talab qilganda qo'llaniladi. Misol tariqasida:

--Salomat bo'lingiz, - dedi Rahmat, - shuni ham sizdan so'rayin: o'lturishka begona kishilar ham aytilsa mumkinmi, ozor chekmasmisiz? ("O'tgan kunlar")

Agar inshoga biron bir matndan iqtibos kiritishingiz kerak bo'lsa, avval ikki nuqta, keyin esa qo'shtirnoq qo'yishingiz kerak [3]

"Masalan", "darvoqe" kabi so'zlar o'zlaridan keyin ikki nuqta qo'yishni talab qiladi.

Ko'chirma gapdan oldin qo'llangan muallif gapidan so'ng.[5]

Otabek buni sezdi va o'zining so'zini kulgulikka olib izoh berdi: - Kelgan kunimda Marg'iloningizni xushlamay boshlag'an edim.

--Otam tag'in qulliq qilg'anida jallodga buyurar: " qo'lingdag'ini bo'shatib, o'rniga hojini olib chiq!"

Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi gaplarni ajratishni ko'rsatish uchun. [5]

--buning uchun sizga bir misol kelturay, bu ish yaqin oralardag'ina bo'ldi: Toshkanddagi jum'alik gap majlislaridan birida bir kishi Azizbekni maxtar... ("O'tgan kunlar").

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki: ikki nuqta ustma -ust qo'yiladigan ikki nuqtadan (:) iborat. Asosan uyushiq bo'laklar oldidan qo'llanadigan umumlashtiruvchi bo'lakdan so'ng, bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni ajratish uchun, ko'chirma gapdan oldin qo'llangan muallif gapidan so'ng qo'yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Ғ. Пунктуацияни ўргатиш методикаси, -Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 1968, -Б.6-7.

2. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремнологик луғати. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1984.

3. Б л о к А. Собр. соч. в 8 т. Т В. – М.–Л., 1962. С. 515.

4. Валгина Н.С. Необычное. в обычном. Заметки о пунктуации А. Ахматовой// Русская речь, 1979, № 6. С. 22–29.

5. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили имло-ишора қоидалари. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1996.

6. Сафронова И. П. Эстетическая функция пунктуации в поэзии М.Цветаевой. КД.–Ижевск, 2004 г.ва б.

7. Чўлпон шеъриятида тиниш белгилари // Ўзбек тили ва адабиёти.- 2020.- №4.- Б.26-33.

8. Мамирова, Д. (2018). Реклама матнларининг ўзига хос хусусиятлари ҳақида айрим мулоҳазалар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 3(3 (68)), 56-59.

9. Туробов, А. (2016). Қўшма сўз компонентлари хусусида. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 55-57.

10. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари. Тузувчилар: Н.М.Маҳмудов, А.П.Мадвалиев, Н.Маҳкамов. – Тошкент: «O‘zbekiston» НМИУ, 2015.

Ўзбек халқ мақоллари. Икки томлик, иккинчи том. – Тошкент: «Фан», 1988.

